



QUR'ONI KARIMDA ZIKRI KELGAN MASHHUR JOYLAR

Tulyaganov Murodjon Muzaffar o'g'li

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qur'oni karimda zikri kelgan mashhur joylar haqida ma'lumotlar taqdim qilingan. Bu maqola dunyo tarixini Qur'oni karim orqali o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchilar uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, shahar, joy, Makka, Madina, Misr, Bobil, Saba.

☒ Kirish qismi: Maqolada Qur'oni karimda kelgan shahar va joylar haqida so'z yuritiladi. Bundan ko'zlangan maqsad Qur'oni karimda qanday shahar va joylar haqida ma'lumot berilgani bilan tanishish va hozirgi kunda bu joylarning qaysilari mavjud ekanini, biz ulardan qaysilarini tanishimizni bilib olamiz. Bu mavzu o'zini musulmon deb hisoblagan va islom diniga qiziqadigan insonlarning e'tiborini tortadi deb o'ylaymiz.

Asosiy qism: Allohning kalomi Qur'oni karimda ko'plab joy nomlari va ularga bog'liq hodisalar sanab o'tiladi. Ya'ni ushbu hodisalar ma'lum shaharlarda va joylarda bo'lgan. Inson tabiati va yaratilishi o'xshash bo'lganligi sababli, insonda uchraydigan xatolar ham aksar holatlarda o'xshash bo'ladi. Alloh taolo ushbu qissalar orqali biz ummatlarga pand-u nasihatlarini eslatma qilgan. Bundan inson oldingilar qilgan xatoni qilmasligi, agar shu xatolarni qilsa oxiri qanday oqibatlarga olib kelishini Alloh taolo Qur'oni karimda zikr qilib o'tgan. Qur'oni karimda eng ko'p zikr qilingan shahar va joylar quyidagilar:

1. Makkai Mukarrama:

U (Alloh) Makkaning ichida (ya'ni Hudaybiyyada) sizlarni ularning (Makka mushriklarining) ustiga g'olib qilganidan keyin ularning qo'llarini sizlardan, sizlarning qo'llaringizni ulardan to'sgan (ya'ni o'rtalaringizda sulh paydo qilgan) zotdir. Alloh qilayotgan amallaringizni ko'rib turguvchi bo'lgan zotdir. (Fath surasi: 24-oyat)

2. Madinai Munavvara:

Madina aholisi va ularning atroflaridagi a'robiylar uchun (jihodga chiqmay) Allohning payg'ambaridan qolishlari va Undan yuz o'girib o'zlari bilan ovora bo'lishlari joiz emas edi. Zero, Alloh yo'lida ularga biron tashnalik, mashaqqat, ochlik yetsa va kofirlarni g'azablantiradigan biron qadam bossalar, dushmanga biron ziyon yetkazsalar, albatta ular uchun bu ishlari sababli, yaxshi amal yozilur. Zotan, Alloh yaxshilik qilguvchilarning amallarini zoe qilmas. (Tavba surasi: 120-oyat)

3. Saba shahri:

Shu joy nomi ostida Alloh taolo qur'onu karimda Saba surani nozil qilgan. Ushbu sura Qur'on karimda 34-sura hisoblanadi. Bu suraning 15-oyatida Alloh taolo marhamat qiladi:



Batahqiq, saba'liklar uchun o'z maskanlarida oyat (belgi) – o'ng va chapdan ikki bog' bor edi. (Sab'a surasi: 15-oyat)

4. Irom Shahri:

6. Rabbingiz Od (qabilasi)ni nima qildi, ko'rmadingizmi?! 7.(Ular) baland ustunli Iram (shahridan) bo'lib, 8. (boshqa) yurtlarda uning o'xshashi yaratilmagan. (Fajr surasi: 6-7-8 oyatlar)

5. Ar-Roqiyim:

Balki, Kahf (g'or) va Bitik (voqealari yozilgan tosh) egalarini Bizning mo'jizalarimizning eng ajoyibi, deb hisoblagandirsiz? (Kahf surasi: 9-oyat)

6. Madyan Shahri:

Madyan (qavmi)ga birodari Shuaybni (elchi - payg'ambar etib yubordik). (U dedi: "Ey, qavmim! Allohga sig'iningiz! Sizlar uchun Undan o'zga iloh yo'qdir. O'lchov va vazndan urib qolmangiz. Men sizlarni (hozircha) yaxshilik (farovonlik)da ko'rib turibman va men sizlarga (hammani) qamrab oluvchi kun (qiyomat)ning azobi (bo'lishi)dan qo'rqaman. (A'rof surasi: 85-oyat)

7. Bobil :

Va Sulaymon davridagi shaytonlar (jinlar) aytgan narsalarga ergashadilar. Sulaymon kofir emas edi, balki odamlarga sehr o'rgatadigan shaytonlar kofir edilar. Va Bobildagi Horut va Morut nomli farishtalarga tushirilgan narsalarga ergashadilar. — Holbuki, u farishtalar: «Biz faqatgina fitnamiz (ya'ni odamlarni aldab imtihon qilish uchun yuborilganmiz), bas, (biz aytgan narsalarni qilib) kofir bo'lib qolma», demasdan turib hech kimga hech narsa o'rgatmas edilar. — Va o'shalardan (Horut va Morutdan) er-xotinning o'rtasini buzadigan narsalar o'rganadilar. (Lekin) ular (yahudiy sehrgarlar) sehr bilan Allohning iznisiz hech kimga zarar yetkaza olmaydilar. Va hech foydasiz, bil'aks zararli narsalarni o'rganadilar. Axir (Allohning kitobi o'rniga sehrni) almashgan kimsalarga Oxiratda hech qanday nasiba yo'q ekanini bilgan edilar-ku. Jonlarini naqadar yomon narsaga (ya'ni Oxiratdagi mahrumlikka) sotganlarini bilsalar edi. (Baqara surasi: 102-oyat)

8. Misr:

Biz Musoga va uning birodariga: "Ikkovingiz qavmingiz uchun Misrdan uylar tayyorlang, uylaringizni qibla qilib, namozni to'kis ado etinglar va mo'minlarga xushxabar ber", deb vahiy yubordik. (Yunus surasi: 87-oyat)

9. Ahqof shahri:

(Ey, Muhammad,) Od (qabilasi)ning birodarini (Hudni) eslang! O'shanda u o'zining qum-tepalardagi qavmini:"Sizlar Allohgagina ibodat qilinglar! Men, haqiqatan, sizlarga ulug' Kunning azobidan qo'rqarman", - deb ogohlantirgan edi. Vaholanki, undan oldin va keyin ham ogohlantiruvchilar (payg'ambarlar) o'tgandir. (Ahqof surasi: 21-oyat)

Qur'on karimda juda ko'p joylarning zikri kelgan bo'lib ulardan mashhur va ma'lumlarini aytib o'tdik.



☒ Xulosa: xulosa qilib aytadigan bo'lsak biz bu joylar haqida yanada ko'proq o'rganib, o'sha joylarda yashagan qavmlarning oqibati nima bilan yakun topgani haqida ma'lumotga ega bo'lib, o'rganganlarmizdan to'g'ri xulosa chiqarishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Abul Barokot Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an Nasafiy .Tafsirun Nasafiy.Madorikut tanzil va haqiqut ta'viyl.- "Doru ibn Kasiyr", Bayrut. 2018 y. -B.333.
2. Qur'oni karim